

Tabiatning insoniyatga ta'siri

Oramizda kim ham tabiat qo'ynida bo'lishni yoqtirmaydi deysiz? Erta bahorda o't-o'lanlarning, nafis gullarning xushbo'y hididan nafas olish, dengizning yengil shabadasidan zavqlanish, kuzgi sayrgohlarda sayr qilish, qorli o'rmon yo'li bo'ylab chang'ida yurish naqadar farahbaxsh. Bularning barchasi, shubhasiz, juda yoqimli va har doim qablarni ko'taruvchidir. Qolaversa, kuchning oshishiga va hayotiy energiyaning tiklanishiga yordam beradi.

Ona tabiatning nafaqat aqliy, balki jismoniy holatimizga ham foydali ta'sir ko'rsatishi qadim zamonlardan beri ma'lum. Axir, ilgari sog'ligida muammo bo'lgan odamlar an'anaviy ravishda davolanish, hordiqalarini yozish uchun janubga, dengiz bo'ylariga borishlari bejiz emas edi. Bugungi kunda ko'pchiligimiz geyzerlar yoki shifobaxsh loy bilan davolanish uchun dam olish maskanlariga tashrif buyurish uchun birinchi imkoniyatda intilamiz.

Rassomlar, ijodkorlar, shoir-u yozuvchilar uchun tabiat ko'pincha ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi. Ko'plab go'zal she'rlar, ijodkorlar ta'biri bilan aytganda, ochiq havoda yaratiladi.

Menimcha, biz faqat tabiat qo'ynida bo'lsak, o'zimizni chinakam baxtiyor, yengil, quvnoq his qilishimiz mumkin. Bunday paytlarda har birimiz doimo xotirjamlikni his qilamiz, barcha o'ylar va salbiy fikrlar uzoqda qolib, ular o'rnini yoqimli va quvonchli erkinlik hissi egallaydi.

Shuningdek, tabiatning insonga bunday sehrli ta'siri bizning u bilan birlikda yashashimiz uchun yaratilganligimiz bilan bog'liqdir. Zamonaviy shahar hayoti atmosferasiga kirishimiz bilan bu muvozanat buziladi va noqulaylik hissi paydo bo'ladi. Uyg'unlikni faqat qisqa vaqtga shahardan tashqarida tabiat qo'yniga borgan paytlardagina tiklash mumkin.

Shunday ekan, hozir tobora fan-texnika rivojlanib, ona tabiatimizda jiddiy xavf tug'dirayotgan omillarni aniqlab, ularni bartaraf etish taraddudidni ko'rishimiz kerak.

Murodqosim Abdiyev